ISSN 2181-7138

# МУАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

## *2023*

## 1/1-сан

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гуўалық берилген.***

Нөкис

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

**Nusratova H. Ch.** Ilmiy-ommabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari 6
**Rustamova Z.** Dialektal korpus korpus lingvistikasining o’rganish ob’ekti sifatida 16
**Bakiyeva H. S.** Ona tili ta’limida o‘quvchilarning matn ustida ishlash va matn yararish ko‘nikmalarini shakllantirish 21
**Рамазанова Р. А.** Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы 27

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

**Ibadullayev Q. M.** O‘rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati 34
**Xolmatova S. K.** Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubiyati 38
**Narimbaeva L. K.** Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlantipishning muhim xususiyatlari va komponentlari 44
**Rustamov L. X.** Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari 51
**Tursaotov A. E.** Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari 55
**Mirzakarimova M. M.** O‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda clil texnologiyalari 60
**Jumanova F. U.** Dars- ta’limni tashkil etishning asosiy shakli 64
**Обидов А. Э., Джураев А. С.** “Адаптив таълим” ҳодисаси ва унинг ўзига хослиги 69
**Бозорова М. Қ.** Ўқувчи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик ғоялардан фойдаланиш 82
**Yarashev A. N.** Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta’limoti 86
**Otamurodova Sh.Q.** Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdagi o‘rni 92
**Mamanazarova N. K.** Xalq ta’limi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini tashkil etish mexanizmi 100
**Egamberdiyeva M.** Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari 107
**Шерматов Б. Б.** Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов 112
**Нигманов Б. Б.** Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения 117
**Мухамеджанов Ш. М.** Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни 122
**Нурманова Н. Қ.** Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования 129

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

**Алтинов И. И.** Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, заҳирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаюм Сабирович хақида) 135
**Давлетбоев Д. Е.** Қорақалпоқ халқининг лочини 141

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

**Asanova U. S.** Tálimde xabar texnologiyalar páninde talabalardiń óz betinshe jumislarin shólkemlestiriwdiń ózine tán ózgeshelikleri ........ 148
**Isaqov J. A.** Grafik ta'lim samaradorligini oshirishda yagona grafikaviy tartibning ta'limiy imkoniyatlari ........ 152
**Isaqov J. A.** Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan o'quv fanlarida qo'llaniladigan grafik tasvir turlari ........ 157
**Polotov K. K.** To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi va ikki tekislikning o'zaro perpendikulyarligi ........ 162
**Тургунбаев Р. М., Алламбергенов И. Х., Аллаберганов Б. И.** Бўлғуси математика ўқитувчиларининг назарий тафаккурини шаллантиришда ўқув тезаурусидан фойдаланиш ........ 167
**Azatova S. N.** Tenglamalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarda tartibga solish universial o'quv harakatlarini shakllantirish haqida ........ 173

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

**Shanasirova Z. Y.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish yo`llari ........ 179
**Xurvaliyeva T. L.** Maktabgacha ta'limda art-texnologiyalardan foydalanish ........ 185
**Abdullayev A. A.** Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari ........ 189
**Teshabayeva Z. S.** Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro`li ........ 194
**Nosirova R. X.** Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, maktab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari ........ 198
**Xidoyatova N. A.** Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi ........ 204
**Karimjonova D. A.** Maktabgacha ta'lim muassasalarda tarbiyalanuvchilarni ijodkorligini rivojlantirishning interaktiv metodlari ........ 208
**Tursunboyeva M. D.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilm fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari ........ 213
**Abdijjaborova S. Q.** Milliy harakatli o'ynlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash ........ 218
**Soatov E. M.** Harakatli o'yinlar klasteri sharoitida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jihatlari ........ 222
**Abdijjaborova S. Q.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali shakllantirish muammolari ........ 227
**Ismanova M. A.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari ........ 231
**Atabekov F. O.** Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi ........ 237
**Buriyeva A.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "ilk qadam davlat dasturi" asosida o'yinlar orqali bolalarning qobilyatlarini rivojlantirish ........ 241
**Ilesova L. A.** Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tarbiyachining tutgan o`rni ........ 244
**Abduraximov D. D.** Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish ........ 248
**Azamatova D. Sh.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini tashkil etishda steam texnologiyasini qo'llashning ahamiyati ........ 252
**Xodjaxanova K. X.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammolari ........ 257
**Ilesova L. A.** Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish ........ 261
**Abdullayeva L. U.** Bo`lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish ........ 267

# BOLALAR RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY INSTITUTLARNING RO`LI

***Teshabayeva Z. S.***
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta`lim metodikasi" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)*

**Таянч сўзлар:** pedagog, oila, rivojlanish, ijtimoiy, institut, shaxs, tarbiya, munosabat, hamkorlik, faoliyat.

**Ключевые слова:** педагог, семья, развитие, социальное, учреждение, личность, воспитание, отношение, сотрудничество, деятельность.

**Key words:** teacher, family, development, social, institution, personality, upbringing, attitude, cooperation, activity.

Baxtli va sog'lom bolalik oilalardagi mehr-oqibatga, samimiy munosabatlarga, milliy urf-odat va an'analar bilan muntazam tanishishga va ahil jamoada istiqomat qilishga bog'liq. Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro`li beqiyos bo`lib, ularsiz yosh avlodni jismonan soglom, ma`naviy yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalab bo`lmaydi.

Ijtimoiy institut sifatida oiladagi ming yillar davomida e`zozlanib avloddan avlodga o`tib kelayotgan oilaviy qadriyatlarni amalda qo`llash barcha davrlarda bo1lganidek, bugungi kunda ham global kompetentli shaxsni tarbiyalashda dasturilamaldir.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o`rni beqiyosdir. Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas`uliyat hamda o`zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. Jamiyat va oila tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir. Bu bog`liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo`lmasligi hamda o`z navbatida oilaning ma`lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko`rinadi. Har bir oila jamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog`liqdir.

Oila shaxs tarbiyasida, boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda, eng muhim vazifalarni bajaradi. Chunki aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me'yorlar shakllanadi. Oila omili insonga

butun umri davomida ta’sir  etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o‘z-o‘zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi.

“Oilaviy munosabatlar — oliy qadriyat” deb hisoblangan bizning respublikamizda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda baland bo‘lib, u o‘z mavqeini hozirgacha sakdab kelmoqda. O‘zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko‘nikmalar avloddanavlodga o‘tib kelmokda

Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg’or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masalalardan bo’lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruny, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshqariy, Kaykovus, Alishr Navoiy, Bobur, Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy kabi ko’plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o’zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Ularning asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga ham alohida e`tabor berilgan.

Sharq mutafakkirlarining barchasini g’oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo’lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo’yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o’rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo’naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e’tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo’lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo’ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo’yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda nomoyon bo’lgan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o’tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’siri kabi qimmatli fikrlar va amaliy ko’rsatmalarni o’z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

Odatda ikkita ota-onaning oilalarida mavjud bo’lgan emotsional va moliyaviy resurslar tufayli ota va onasi bilan birga yashaydigan bolalar maktabda birmuncha yuqori darajalarga erishishga moyil bo’lib, boshqa oilalardagi bolalarga qaraganda kamroq xulq-atvor muammolariga duch kelishadi

Ota-onalar tomonidan uy sharoitida va tashqarida o’tkaziladigan tadbirlar bolalarning akademik bilimlari va maktabga bo’lgan talablariga ta’sir qiladi. Ko’pgina ota-onalar norasmiy ravishda bolalarga tilning maqsadlari va shakllarini o’rgatadilar va bolalarni kitoblar, san’at, musiqa, kompyuter texnologiyalari va ilmiy va matematik fikrlashga ta’sir etadilar. Deyarli

barcha ota-onalar o'z farzandlarini muhim kasb mahoratini egallashlarida ko`maklashadilar.

Pedagoglar va oilalar samarali muloqot qilsalar, ular bolalarga ijobiy ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Ideal holda o'qituvchilar va ota-onalar bolalarning bilimlarini qo'llab-quvvatlashda hamkorlik qiladigan sheriklardir. Oilalar bilan konstruktiv sheriklik aloqalarini o'rnatish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni beramiz:

**1. Bolalarning oila a`zolari haqida bilib oling.** Tarbiyalanuvchilarning oilaviy shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishish pedagog- tarbiyachilarning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

**2. Ota-onalar va boshqa oila boshliqlari bilan suhbatlashish uchun qulay vaziyat yarating.** Pedagoglar do'stona muloqot uslublaridan foydalanib, bolalarning qobiliyatlari to'g'risida optimistik fikr bildirishi, ota-onalarga bolalar ehtiyojlarini bilib olishga yordam beradigan munosabatda bo'lishlari lozim.

**3. Ota-onalar va boshqa oila a'zolaridan ularning maqsadlari, tashvishlari va bolalarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi haqida so'rang.** pedagoglar ota-onalarni ota-bobolari va madaniyati haqida suhbatlashish uchun MTTga kelishga taklif qilib, ota-onalardan bolalarining qobiliyatlari va qiziqishlari to'g'risida anketalarni to'ldirishlarini so'rashlari mumkin.

**4. Ota-onalarga bolalarning yoshga doir muammolari haqida maslahat bering.** Pedagog ota-onalarga yoshga bog'liq xususiyatlar bolalar rivojlanishining tabiiy usuli ekanligini va konstruktiv tarzda hal qilinishi mumkinligini tushunishga yordam berishlari mumkin.

**5. MTTga kelmagan ota-onalar va boshqa oila boshliqlariga murojaat qiling.** Pedagoglar bolalar ishlarining videofilmlarini yoki bogcha tadbirlari kabi maxsus tadbirlarda bolalarning ishtiroki haqidagi fotosuratlarni uyga yuborishlari, shuningdek, bogchadagi eng muhim voqealar bilan guruh yangiliklarini tayyorlashlari mumkin.

**6. Oilalarga tashrif buyuring.** Uyga tashrif buyurish - bu ota-onalarning uyda, bolalar bilan bo'lgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashning nisbatan keng tarqalgan usuli hisoblanadi

**7. Ota-onalarga ular uchun mavjud bo'lgan xizmatlar to'g'risida xabar bering.** Qiynalayotgan ota-onalar ba'zida o'zlari olishlari mumkin bo'lgan imtiyozli jamoat xizmatlari haqida bilishmaydi. Pedagoglar ota-onalarga foydali xizmatlar haqida maslahat berishlari mumkin.

**8. Turli xil aloqa shakllarini qo'llang.** Yozma aloqa, telefon orqali suhbatlar, elektron pochta va veb-saytlar.

Oiladagi ijtimoiy pedagogik faoliyat tizimli yondashuvga asoslangan taqdirdagina yuqori samarali bo`lishi mumkin Ijtimoiy pedagogning oiladagi asosiy faoliyatini ijtimoiy pedagogik yordam tashkil qilib, bu yordam ta’limiy, psixologik va vositachilik ko‘rinishlarida namoyon bo`ladi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda oila turli bilim sohalari: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy ish, sog‘liqni saqlash va boshqalarning markaziy ob’ektlaridan biriga aylanmoqda. Chunki har bir jamiyatning kelajagi o‘sha jamiyatdagi oilalardagi muammolarni hal qilishga bog‘liqdir.

**Adabiyotlar:**


1. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi – Toshkent: Fan, 2006.
2. Karimova V. Oila psixologiyasi. – Toshkent. O‘qituvchi, 2007.
3. Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar’ – Moskva: Vlados, 2002.
4. Slastyonina V.A. Obshaya pedagogika. – M.: Vlados, 2003.
5. Tarbiya / ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas’ul muhar. A.Majidov. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
6. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
7. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz...: ota-onalar uchun. - T.: «Ma’naviyat», 2013.



**РЕЗЮМЕ**

Maqolada bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlar qatorida oila ijtimoiy instituti rolining muhim jihatlari yoritilgan. Pedagoglar va oilalarning samarali muloqot va hamkorlik usullarini o`rnatish bo`yicha tavsiyalar bayon etilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В статье выделены важные аспекты роли социального института семьи среди социальных институтов в развитии детей. Представлены рекомендации по установлению эффективных методов общения и сотрудничества воспитателей и семьи.

**SUMMARY**

The article highlights important aspects of the role of the social institution of the family among social institutions in the development of children. Recommendations for establishing effective methods of communication and cooperation between educators and families are presented.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**
**№** 1/1
Нөкис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:
*А. Тилегенов*

Баспаға таярлаған:
*А. Тилегенов, Р. Утепов*

Компьютерде таярлаған:
*П. Реймбаев*

***Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54***
***Тел.: 224-23-00***
***e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,***
***mugallim-pednauk@umail.uz***
***www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz***

***Журналға келген мақалалларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.***

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100$^{1}/_{8}$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №